





## 92. Doirani teng bo'laklarga bo'lish

Yondosh mavzu:  
vitraj.


Aylana, radius,  
sektor.




1. Rangli shisha bo'laklaridan ishlangan rasm vitraj deb ataladi. Ko'pincha xonalarni bezatish uchun deraza o'rniga vitraj qo'yiladi. Vitrajlarning turlarini ko'rib chiqing. Bu vitrajlarni simmetrik bo'laklardan tuzilgan deyish mumkinmi?



2. Alohida varaqda 6 cm diametrli aylana yasang va uni qirqib oling. Bu shakl doira deyiladimi yoki aylanami? Shaklni o'rtasidan ikki buklang. U necha bo'lakka bo'lindi? Keyin uni yana ikki buklang. Endi nechta bo'lak hosil bo'ldi?



Doiraning markazidan istalgan miqdorda radius o'tkazish mumkin. Agar doira radiuslar bilan bo'laklarga bo'linsa, natijada hosil bo'lgan har bir bo'lak **sektor** deb ataladi.



## 92. Doirani teng bo'laklarga bo'lish



3. Daftaringizda doira yasang.

- Gorizontal bo'yicha diametr o'tkazing. Doira necha bo'lakka bo'lindi?
- Vertikal bo'yicha diametr o'tkazing. Endi doira necha bo'lakka bo'lindi?
- Sektorlardan birini bo'yang. Har bir sektorning burchagi haqida nima deyish mumkin?



4. Amallarni tushuntirish bilan bajaring. Javoblarni tekshiring.



$$8\ 302 + 2\ 938 \qquad 7\ 305 - 2\ 879 \qquad 895 \cdot 56 \qquad 2064 : 8$$



5. Rangli va shaffof shisha bo'laklaridan vitraj yasaldi. Bunda shaffof bo'laklar rangli bo'laklardan 3 marta ko'p. Agar vitrajga hammasi bo'lib 596 ta shisha bo'lagi ishlatilgan bo'lsa, shaffof shishadan necha bo'lak ishlatilgan?



6. Vitraj yasash uchun uch bo'lak – bittasi to'g'ri to'rtburchak shaklida, ikkitasi esa yumaloq shaklda bo'lgan shisha bo'lagi kerak. To'g'ri to'rtburchak shaklidagi bo'lakning bo'yi 1 m 3 dm, eni esa 80 cm. Agar har bir yumaloq shishaning yuzi to'g'ri to'rtburchak shaklidagi shishaning yuzidan 2 marta kichik bo'lsa, vitrajning umumiy yuzini toping.




7. Agar yumaloq vitrajlarning bo'laklari soni 12 ga bo'linishi kerak bo'lsa, unda nechta sektor bo'lishi mumkin? 3 ta misol keltiring.

## 92. Doirani teng bo'laklarga bo'lish



8. Vitraj siniq chiziq shaklidagi mis tasma bilan o'ralgan.



Burchaklarni uchta ustunga yozing.


| O'tkir burchaklar | To'g'ri burchaklar | O'tmas burchaklar |
|-------------------|--------------------|-------------------|
|                   |                    |                   |



9. Vitraj chizmasining o'lchamlari 30 cm va 40 cm. Tayyor vitrajning yuzi  $48 \text{ m}^2$  bo'lsa, uning eni va bo'yini toping.



10. Sxemadan foydalanib, ifoda tuzing va uni hisoblang.



11. Vitraj san'ati ko'rgazmasi uch kun ochiq bo'ldi. Birinchi kun unga 1417 nafar, ikkinchi kun esa birinchi kundagidan 218 nafar ko'p odam keldi. Agar uch kun ichida ko'rgazmaga 4924 nafar odam kelgan bo'lsa, uchinchi kun ko'rgazmaga necha nafar odam kelgan?